


Hujjat kodi XBB–UZN–01	“NAVOIYAZOT” AKSIYADORLIK JAMIYATI	_____nusxa
---------------------------	---------------------------------------	------------

“TASDIQLAYMAN”
“Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyati
boshqaruvi raisi
F.X. Samadov
2025-y. “10” iyun



RISKLARNI BOSHQARISH
BO‘YICHA QO‘MITA TO‘G‘RISIDAGI
NIZOM

MUNDARIJA

Bo'limlar tartib raqami	Bo'limlar nomlanishi	Betlar raqami
	O'zgartirish (qo'shimcha) larni qayd etish varaqasi	3
1	Qo'llanish sohasi	4
2	Atamalar va ta'riflar	4
3	Havola hujjatlari	5
4	Qo'llash uchun mas'ul shaxs	5
5	Umumiy qoidalar	6
5.1	Qo'mita maqsadlari va vazifalari	6
5.2	Qo'mita tarkibi	7
5.3	Qo'mitaning huquq va vakolatlari	8
5.4	Qo'mita a'zolarining va uch chiziqli model doirasidagi ishtirokchilar javobgarligi	9
5.5	Qo'mita faoliyatini tashkil etish	10
5.6	Hujjatlashtirish va hisobot	11
5.7	Boshqaruvning boshqa organlari bilan o'zaro hamkorlik	12
5.8	Yakuniy qoidalar	12
6	Yozuvlar	12
7	Saqlash	12
8	Ilovalar	13

O'ZGARTIRISH (QO'SHIMCHA) LARNI QAYD QILISH VARAQASI

O'zgartirish (qo'shimcha) ning raqami	O'zgartirish (qo'shimcha) ning qisqacha mazmuni	Tasdiqlangan sanasi	Amalga kirgan sanasi	Imzo

1 QO‘LLANISH SOHASI

Ushbu Nizom Risklarni boshqarish bo‘yicha qo‘mitaning tuzilmasi, vakolatlari, funksiyalari va faoliyat tartibini belgilaydi hamda korxonaning barcha tarkibiy bo‘linmalari uchun majburiy hisoblanadi.

2 ATAMA VA TA‘RIFLAR

2.1 Hujjatlarga tegishli atamalar va ta‘riflar

“Uch chiziqli model” tamoyili	(Three Lines Model) — tashkilotda risklarni samarali boshqarish, ichki nazorat va boshqaruvni ta‘minlash uchun ishlatiladigan xalqaro tamoyil bo‘lib, bu model tashkilotning turli darajalardagi funksiyalari o‘rtasidagi aniq roli va javobgarliklarni belgilaydi
Audit	Audit mezonlariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligini aniqlash uchun obyektiv olingan va baholangan auditorlik ma‘lumotlarining hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan tizimli tekshirish jarayoni
COSO ERM konsepsiyasi	Tashkilotlarda risklarni strategik darajada boshqarish uchun yaratilgan integratsiyalashgan metodologiya. U AQShdagi Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO) tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, birinchi versiyasi 2004 yilda, yangilangani esa 2017 yilda chiqarilgan
ESG risklari	Atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv sohasidagi omillar bilan bog‘liq risklar.
Korrupsiyaviy risklar	Tashkilotda korrupsiyaga oid risklar toifasi;
Ma‘muriy risklar	Tashkilotning rejalari, asosiy faoliyati yo‘nalishlari, vakolatlari va ularning taqsimoti bilan bog‘liq risklar toifasi;
Moliyaviy risklar	Tashkilot faoliyatini moliyalashtirishga oid risklar toifasi;
Operatsion risklar	Tashkilotning doimiy faoliyati bilan bog‘liq risklar toifasi;
Samaradorlikni tahlil qilish	Rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish darajasini tahlil qilish va rejalashtirilgan natijalarga erishish.
Strategik risklar	Tashkilotning strategik maqsadlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining qarorlari bilan belgilangan tashkilot faoliyatiga oid maqsadli ko‘rsatkichlar bilan bog‘liq risklar toifasi;
Tartib	Faoliyatning bajarilish tartibini belgilovchi hujjatlar (ya‘ni korxona standartlari, nizomlar, texnologik hujjatlar)
Xavf (Risk)	Tashkilot maqsadlariga erishishga ta‘sir qiluvchi noaniqlik (ehtimoliy hodisa, holat yoki ichki va tashqi omillardir)
Risk indikatorlari	(KRI – Key Risk Indicators) bu tashkilotda risklar qaysi nuqtada paydo bo‘lishi mumkinligini oldindan aniqlash va nazorat qilish uchun ishlatiladigan me‘yorli ko‘rsatkichlar
Risklar reestri	Risklarga mas‘ul bo‘lgan shaxslar tomonidan shakllantiriladigan risklar to‘g‘risidagi tizimli axborotni o‘z ichiga olgan hujjat.
Risklarni boshqarish qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda — Qo‘mita)	Tashkilotda risklarni boshqarish maqsadida ularning birinchi rahbarlari boshchiligida kollegial asosda tuziladigan qo‘mita;
Risklarni boshqarish tizimi	Belgilangan maqsad va vazifalarga erishish hamda noaniq sharoitlarda qaror qabul qilishda yetarli kafolatni ta‘minlashga qaratilgan o‘zaro bog‘liq tashkiliy harakatlar va jarayonlar majmuasidir

Riskni aniqlash	Risk manbalarini, hodisalarini va oqibatlarini aniqlash, shuningdek ularning sabablarini o'rganish jarayoni
Riskni boshqarish	Risklarni aniqlash, baholash, nazorat qilish va monitoring qilish jarayoni

2.2 Qo'llaniladigan qisqartmalar

AJ	Aksiyadorlik jamiyati
COSO ERM	(Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission) (Enterprise Risk Management – Integrated Framework) — korxonada risk-risklarni boshqarishning COSO modeli asosidagi integral ERM tizimi
ESG	Ekologik, Ijtimoiy va Korporativ boshqaruv (Environmental, Social, Governance)
ISO	Xalqaro Standartlashtirish Tashkiloti
KPI	Asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari
UZN	Umumzavod nizomi
RBB	Risklarni boshqarish bo'limi (Risk Management Department)
RBQ	Risklarni boshqarish bo'yicha qo'mita

3 HAVOLA HUJJATLARI

3.1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 10-iyuldagi PF-100-sonli Farmoni.

3.2 "UzAssets" AJning ISO 31000:2018 va COSO ERM konsepsiyasi asosidagi "Davlat korxonalarida risk-risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish konsepsiyasi" 08.02.2024 y.

3.3 ISO 31000:2018 – (Risk Management Guidelines) Risklarni boshqarish bo'yicha xalqaro standarti;

3.4 O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni;

3.5 Korporativ boshqaruv kodeksi;

3.6 Risklarni boshqarish siyosati;

3.7 "Navoiyazot" Ajning 26.12.2024-yildagi 2387-sonli buyrug'i

3.8 "Navoiyazot" AJ boshqaruv hujjatlari to'g'risidagi nizom. TB-UZN-2;

4 QO'LLASH UCHUN MAS'UL SHAXS

Risklarni boshqarish bo'yicha Qo'mita a'zolarining lavozimlari va mas'uliyatlari:

4.1-jadval

Lavozimi	Mas'uliyati
Qo'mita raisi – "Navoiyazot" AJ Boshqaruv raisi	Qo'mitaga rahbarlik qiladi, majlislarni chaqiradi va olib boradi, risklarni boshqarish bo'yicha strategik qarorlar qabul qilinishini nazorat qiladi, yakuniy qarorlar uchun mas'ul hisoblanadi.
Qo'mita raisi o'rinbosari – Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari	Qo'mita raisiga risklarni boshqarish bo'yicha yordam beradi, rais yo'qligida uni almashtiradi, Qo'mitaning faoliyatini muvofiqlashtiradi.
Qo'mita kotibi – Risklarni boshqarish bo'limi boshlig'i	Qo'mita majlislari bayonnomalarini yuritadi, hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtiradi, qarorlarni ijroga yo'naltiradi va ularning monitoringini olib boradi, hisobotlarni tayyorlaydi.

Lavozimi	Mas’uliyati
Qo‘mita a‘zolari (boshqaruv a‘zolari, xizmat va bo‘lim boshliqlari)	Risklarni aniqlash, baholash va nazorat qilish bo‘yicha takliflar beradi, qarorlar ishlab chiqishda faol ishtirok etadi, Qo‘mita qarorlarini amaliyotga joriy etish uchun o‘z sohasida javobgardir.
Ichki audit xizmati – Ichki audit xizmati rahbari	Risklarni boshqarish tizimining samaradorligini mustaqil baholaydi, ichki nazoratlar faoliyatini tekshiradi, risklar bilan bog‘liq kamchiliklar haqida Qo‘mitaga axborot beradi (3-liniya).
Tashkiliy tuzilma rahbarlari (bo‘lim/boshqarmalar)	O‘z faoliyat sohasidagi risklarni aniqlaydi va nazorat choralari ko‘radi, risklar haqida hisobot beradi, birinchi himoya liniyasi sifatida risklar bilan bog‘liq operatsion faoliyat uchun to‘liq javobgardir (1-liniya).

5. UMUMIY QOIDALAR

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, xususan, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun, Korxona Ustavi, Korporativ boshqaruv kodeksi va boshqa ichki me‘yoriy hujjatlar, shuningdek, korporativ boshqaruv va risklarni boshqarishning xalqaro standartlari asosida ishlab chiqilgan.

Nizomda “Navoiyazot” AJ Risklarni boshqarish bo‘yicha qo‘mitaning (bundan buyon – Qo‘mita) maqsadlari, vazifalari, vakolatlari, huquq va majburiyatlari, shuningdek uning faoliyat yuritish tartibi belgilangan.

Qo‘mita o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 10 iyuldagi PF-100-son Farmoni, “Navoiyazot” AJning ichki me‘yoriy hujjatlari hamda ISO 31000, COSO ERM xalqaro standartlari, “Uch chiziqli model” va korporativ boshqaruv tamoyillariga amal qiladi.

Mazkur Nizom talablari Qo‘mita a‘zolari hamda risklarni boshqarish jarayonida ishtirok etuvchi barcha xodimlar uchun majburiydir.

Qo‘mita — korxonada risklarni boshqarish tizimini muvofiqlashtirish, monitoring qilish va takomillashtirish uchun tashkil etilgan kollegial maslahat organi hisoblanadi.

5.1. QO‘MITA MAQSADLARI VA VAZIFALARI

5.1.1. Qo‘mita korxonaning risklarni boshqarish tizimi ustidan nazorat va kuzatuvni amalga oshirish, risklarni samarali aniqlash, baholash, monitoring qilish va minimallashtirishni ta‘minlash maqsadida tashkil etiladi.

5.1.2. Qo‘mitaning asosiy vazifalari:

Strategik boshqaruv va siyosat sohasida:

– Strategik darajada risklarni boshqarish tizimini shakllantirish va joriy etish bo‘yicha siyosat hamda tartib-qoidalarini tasdiqlashda ishtirok etish va nazoratni ta‘minlash.

– Korxonaning risk-ishtaha darajasini aniqlash takliflarini ishlab chiqish va rahbariyatga taqdim etish.

– Strategik rejalashtirishga mas’ul tuzilmalar tomonidan tizim faoliyati va maqsadli ko‘rsatkichlarga (indikatorlarga) erishish bilan bog‘liq moliyaviy, operatsion hamda ichki nazoratga oid aniqlangan xavflarning ro‘yxati shakllantirilishi va yangilab borilishini ta‘minlash.

– Strategik rejalashtirish uchun muhim bo‘lgan risklar ro‘yxatini shakllantirish va yangilab borish.

Risklarni aniqlash, baholash va monitoring sohasida:

- Korporativ risklar reestrini yuritish va tahlil qilish.
- Risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha metodologiyani tasdiqlash.
- Moliyaviy, operatsion, imidj, ekologik, ESG, komplaens va boshqa asosiy risklarni aniqlash va baholash.
- Har chorakda risklar sabablarini tahlil qilish va ularni kamaytirishga oid choralarni muhokama qilish.
- Risklar bilan ishlash uchun mas'ul qo'mita va bo'limlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish.

Choralar rejalashtirish va ijrosini nazorat qilish sohasida:

- Asosiy risklar va ularga oid harakatlar rejasini ko'rib chiqish va tasdiqlash.
- Risklarni kamaytirishga qaratilgan choralar va tavsiyalar ijrosini nazorat qilish.
- Aniqlangan risklar va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha bo'limlar faoliyatini tashkil etish va monitoring qilish.
- Risklarni bartaraf etish bo'yicha rahbariyatga tavsiyalar tayyorlash.

Ichki muvofiqlik va huquqiy rioya sohasida:

- Qonunchilik va ichki qoidalarga rioya etilishini ta'minlash.
- davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlash hamda aniqlangan xavflarni bartaraf etish.
- normativ-huquqiy hujjatlar va huquqni qo'llash amaliyotidagi xavflarning yuzaga kelishiga imkon beruvchi ziddiyatlarni bartaraf etish, tegishli normalarni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash.

Baholash, hamkorlik va rivojlanish sohasida:

- Risklarni boshqarish tizimi faoliyatini davriy mustaqil baholashni tashkil etish.
- Himoyaning birinchi, ikkinchi va uchinchi chiziqlari o'rtasida hamkorlikni ta'minlash.
- Risklarni boshqarish tizimining samaradorligi va maqsadli ko'rsatkichlarga erishishga ta'sirini baholash.
- Risklarning oldini olishga qaratilgan istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash va ilgari surish.

5.2. QO'MITA TARKIBI

5.2.1 Xavflar bo'yicha qo'mita tarkibi risklarni samarali boshqarish va barcha manfaatdor tomonlar manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydigan darajada tanlangan bo'lishi kerak.

Xavflar bo'yicha qo'mita tashkilotning ichki audit xizmatlari qo'mitalarning ishchi organi ham hisoblanadi.

Xavflar bo'yicha qo'mita tarkibi quyidagicha:

5.1-jadval

Lavozimi	Qo'mitadagi roli
"Navoiyazot" AJ boshqaruv raisi	Qo'mita rahbari
Boshqaruv raisining ishlab chiqarish, mahalliyashtirish masalalari, sanoat va axborot texnologiyalari sohasida kooperatsion aloqalarni kengaytirish bo'yicha birinchi o'rinbosari	Qo'mita rahbari o'rinbosari
Xavflarni boshqarish bo'limi boshlig'i	Qo'mita kotibi

Lavozimi	Qo'mitadagi roli
Boshqaruv raisining iqtisodiyot va moliya bo'yicha o'rinbosari	Qo'mita a'zosi
Boshqaruv raisining marketing, sotish va xarid qilish bo'yicha o'rinbosari	Qo'mita a'zosi
Boshqaruv raisining transformatsiya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari	Qo'mita a'zosi
Ichki audit xizmati rahbari	Qo'mita a'zosi (ichki nazorat)
Bosh buxgalter	Qo'mita a'zosi (moliyaviy risk)
Komplaens-nazorat boshqarmasi boshlig'i	Qo'mita a'zosi (korruption risk)
Yuridik boshqarma boshlig'i	Qo'mita a'zosi (huquqiy risk)
Korporativ munosabatlar boshqarmasi boshlig'i	Qo'mita a'zosi (korporativ risk)
Boshqa tashkiliy tuzilma rahbarlari (zarur hollarda jalb qilinadi)	Qo'mita a'zosi

5.2.2. Qo'mita tashkilot rahbariga hisobdor bo'lib, zaruratga qarab Audit qo'mitasi, va boshqa qo'mitalar, ESG ishchi guruhi hamda bo'limlar bilan hamkorlikda ishlaydi.

5.2.3 Qo'mitaning a'zolarini tayinlash va ozod etish tartibi:

- Qo'mita a'zolari korxona rahbari tomonidan tayinlanadi va ozod etiladi;
- Qo'mita tarkibi korxona rahbarining buyrug'iga asosan toq sonli, kamida 5 nafar a'zodan iborat bo'lishi lozim. Shu jumladan, Qo'mita raisi, uning o'rinbosari va yetarli bilim hamda tajribaga ega boshqa a'zoldan iborat bo'ladi;
- Qo'mita a'zolari tashkilotning asosiy faoliyati, korrupsiyaga qarshi kurash, moliya-iqtisodiyot, audit, axborot texnologiyalari, inson resurslarini boshqarish, risklarni boshqarish va huquq sohalarida yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak;
- Qo'mita tarkibi har ikki yilda kamida bir marta yangilanadi;
- Qo'mita a'zolaridan biri boshqa ishga o'tkazilsa, qo'mita tarkibida uning vazifasi yangi tayinlangan yoki vazifasini bajarish yuklatilgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi;
- Tashkilot boshqaruvi raisi Qo'mita raisi hisoblanadi. U ishda bo'lmagan paytda uning vazifalarini o'rinbosar bajaradi.

5.3. QO'MITANING HUQUQ VA VAKOLATLARI

Qo'mita o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish maqsadida quyidagi huquqlarga ega:

Nazorat va tahlil huquqlari:

- Rejadan tashqari baholash va tekshiruvlar o'tkazilishini boshlash;
- Risklarni boshqarishga oid qarorlar va rejalarining ijrosini nazorat qilish, rahbariyatdan hisobot so'rash;
- Tashkilot tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan muntazam ravishda risklarning holati haqida ma'lumot olish;

Axborot va resurslarga kirish huquqlari:

- Tashkilot tizimidagi bo'linmalardan hujjat, ma'lumot va axborotlarni so'rash va olish (elektron, og'zaki va yozma shakllarda);
- Risklar reestri, KRI va risk xaritalarini tasdiqlash yoki ular bo'yicha takliflar kiritish;

Mutaxassislar va tashqi resurslarni jalb etish huquqlari:

- Tashqi ekspert va konsultantlarni (shu jumladan, Big 4 vakillari) jalb etish;
- Qo'mitaning yig'ilishlariga mutaxassislar va konsultantlarni taklif qilish;

- Risklarni boshqarish bilan bog‘liq yig‘ilish va uchrashuvlarda ishtirok etish;

O‘quv va kommunikatsiya vakolatlari:

- Risklarni boshqarishga oid savodxonlikni oshirish maqsadida trening, seminar va boshqa tadbirlarni tashkil etish;
- Faoliyatda texnik vositalardan (audio, video va foto qayd etish vositalari) foydalanish;

Normativ-tashkiliy vakolatlar:

- Rahbariyatga risklar bo‘yicha siyosat, tuzilma va tartiblarni o‘zgartirish haqida takliflar tayyorlash;
- Qonunchilikka muvofiq boshqa zarur huquqlardan foydalanish.

5.4. QO‘MITA A‘ZOLARINING VA UCH CHIZIQLI MODEL DOIRASIDAGI ISHTIROKCHILAR JAVOBGARLIGI

5.4.1. Risklarni boshqarish bo‘yicha qo‘mita (RBQ) majburiyatlari

- RBQ a‘zolari quyidagi majburiyatlarni bajaradi:
- Yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarish, axloqiy va huquqiy me‘yorlarga rioya etish, maxfiy ma‘lumotlarni oshkor etmaslik;
- Korxona manfaatlarini himoya qilish, tavakkalchiliklarni o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqish;
- Risklar reestrini shakllantirish, yangilash, ko‘rib chiqish va tasdiqlash;
- Har chorakda risklar sabablarini tahlil qilish, tuzilmalar tomonidan ko‘rilgan chora-tadbirlar rejasini muhokama qilish va tasdiqlash;
- Ichki audit xizmati tomonidan risklarni boshqarish tizimiga oid o‘rganish va tahlillarni ko‘rib chiqish;
- Normativ-huquqiy hujjatlardagi risk omillarini bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- Risklarni kamaytirishga qaratilgan istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash;
- Risklarni boshqarish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan muntazam hisobotlarni muhokama qilish;
- Davlat xaridlari sohasida aniqlangan risklarni bartaraf etish va qonunchilik talablariga rioya etilishini nazorat qilish;
- Korxonaning umumiy strategiyasi va ESG transformatsiya jarayonlariga risklarni boshqarish tizimini integratsiyalash;
- Rahbariyatni aniqlangan risklar to‘g‘risida xabardor qilishga ko‘maklashish.

Eslatma: Qo‘mita "Uch chiziqli mudofaa modeli"ga ko‘ra bevosita himoya chizig‘i bo‘lmasa-da, **funksional muvofiqlashtiruvchi va nazorat organi** sifatida faoliyat yuritadi.

5.4.2. "Uch chiziqli mudofaa modeli" doirasidagi ishtirokchilar va ularning vazifalari:

5.2-jadval

Chiziq	Ishtirokchilar	Asosiy vazifalari
1-chiziq	Tashkiliy tuzilmalar (bo‘lim rahbarlari, ishchi guruhlar)	Operatsion faoliyatni olib boradi, risklarni aniqlaydi va boshqaradi, kundalik qarorlar uchun javobgardir.
2-chiziq	Risklarni boshqarish, komplains, ESG guruhlari	1-chiziqqa metodologik, tahliliy va maslahat yordami ko‘rsatadi; baholash, nazorat mexanizmlarini ishlab chiqadi.

Chiziq	Ishtirokchilar	Asosiy vazifalari
3-chiziq	Ichki audit xizmati	Mustaqil va ob'ektiv ravishda 1- va 2-chiziqlar faoliyatini baholaydi; rahbariyatga hisobot beradi.

5.4.3. Tashkiliy tuzilmalar majburiyatlari (1-chiziq)

- Bo‘lim rahbarlari quyidagilar uchun bevosita javobgardir:
- O‘z faoliyat doirasidagi risklarni aniqlash, baholash va ularning reestrini shakllantirish;
- Risklarni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va bajarilishini ta‘minlash;
- Risklar monitoringini yuritish;
- Har chorak yakuni bo‘yicha RBQga amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqida ma‘lumot taqdim etish;
- Insident va inqiroz holatlarida reja tayyorlash va amalga oshirish;
- Risklarni boshqarish siyosatiga rioya qilish;
- Ichki audit va qo‘mita so‘rovlari asosida tegishli ma‘lumotlarni taqdim etish;
- Normativ hujjatlardagi risk omillarini bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- Risklarni kamaytirishga doir istiqbolli yo‘nalishlar ishlab chiqish.

5.4.4. Risklarni boshqarish bo‘limi majburiyatlari (2-chiziq)

- Risklarni boshqarish bo‘limi quyidagi faoliyatlarni amalga oshiradi:
- Risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish bo‘yicha metodik rahbarlik;
- Risklar reestrini shakllantirish va yangilash;
- Bo‘limlar bilan hamkorlikda risklarni kamaytirish chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish;
- Qo‘mita va yuqori rahbariyat uchun tahliliy materiallar va hisobotlar tayyorlash;
- Strategik rejalashtirishga mas‘ul tuzilmalar tomonidan tizim faoliyati va maqsadli ko‘rsatkichlarga (indikatorlarga) erishish bilan bog‘liq moliyaviy, operatsion hamda ichki nazoratga oid aniqlangan xavflarning ro‘yxati shakllantirilishi va yangilab borilishini ta‘minlash.

5.4.5. Ichki audit xizmati majburiyatlari (3-chiziq)

- Ichki audit xizmati mustaqil auditorlik baholovini amalga oshiradi;
- Ichki nazorat va risklarni boshqarish tizimini doimiy ravishda tekshiradi;
- Jarayonlar to‘g‘riligi va choralarning samaradorligini baholaydi;
- Risklar reestrining sifati, to‘liqligi va dolzarbligini tahlil qiladi;
- Audit xulosalarini RBQ va rahbariyatga taqdim etadi;
- Xodimlarga maslahatchilik va o‘quv faoliyatida ishtirok etadi;
- Tizimni doimiy takomillashtirishga ko‘maklashadi;
- Qoidabuzarliklarni bartaraf etish choralarni taklif etadi va ularning ijrosini nazorat qiladi.

5.5. QO‘MITA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

5.5.1. Qo‘mita o‘z faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida quyidagilarni amalga oshiradi:

- Korxonada risklarni boshqarishni tashkil etish bo‘yicha ichki hujjatlarni ishlab chiqish, tasdiqlash uchun taqdim etish va ularning ijrosini nazorat qilish;
- Risklarni baholash usullarini tanlashda metodik yordam ko‘rsatish;

Bo‘linmalar tomonidan belgilangan risklarning aniqlanganligini va ularni baholash adolatligini tekshirish;

Risklarni baholash va boshqarish natijalarini tahlil qilish hamda ularni Qo‘mita majlislarida muhokama qilish;

Risklarni boshqarish sohasida xodimlarni muntazam o‘qitish va malakalarini oshirish tadbirlarini tashkil etish;

Korxonada risklarni boshqarish tizimi samaradorligini tahlil qilish va uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

Tashqi va ichki risklarga ta’sir etuvchi omillar o‘zgarishi munosabati bilan risklarning qayta baholanishini ta’minlash;

Risklar ro‘yxati va ularni boshqarish bo‘yicha ma’lumotlarni doimiy yangilab borish;

Bo‘limlar tomonidan belgilangan risklarni boshqarish bo‘yicha chora-tadbirlar ijrosini nazorat qilish;

Har chorak yakuni bilan risklarni boshqarish faoliyati natijalari bo‘yicha Korxona rahbariga hisobot taqdim etish.

5.5.2. Qo‘mita yig‘ilishlari

– Qo‘mita yig‘ilishlari muntazam o‘tkaziladi, lekin har chorakda kamida bir martadan kam bo‘lmasligi kerak..

– Navbatdan tashqari yig‘ilishlar Qo‘mita raisi qaroriga asosan chaqirilishi mumkin.

– Yig‘ilish onlayn shaklda o‘tkazilishi ham mumkin.

– Yig‘ilish chaqirilishi, vaqti, joyi va kun tartibi haqida xabarnoma Qo‘mita a’zolariga kamida 3 ish kuni oldin yuboriladi.

5.5.3. Yig‘ilishni tashkil etish

– Qo‘mita raisi yig‘ilish chaqirilishi, uning sanasi, joyi, kun tartibi va ishtirokchilar ro‘yxatini belgilaydi.

– Yig‘ilish mavzusidan kelib chiqib, Qo‘mita raisi qaror bilan tegishli tashkiliy tuzilma vakillarini ham taklif qilishi mumkin.

5.5.4. Qo‘mita yig‘ilishi vakolatligi

– Qo‘mita qarorlarini qabul qilish uchun kquorum — a’zolarning kamida **to‘rt**dan **uch qismi** qatnashsa, yig‘ilish vakolatli hisoblanadi.

– Qarorlar yig‘ilishda ishtirok etgan a’zolarning ko‘pchiligi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lgan holda Qo‘mita raisi ovozi hal qiluvchi hisoblanadi..

5.5.5. Chora-tadbirlarning ijrosi

Qo‘mita tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasining ijrosi va risklarni boshqarish bo‘yicha yillik hisobotlar rasmiy veb-saytlarda e’lon qilinadi.

5.6. HUJJATLASHTIRISH VA HISOBOT

5.6.1. Qo‘mita yig‘ilishlari natijalari bo‘yicha bayonnoma rasmiylashtiriladi.

Qo‘mita majlislari zaruratga qarab, lekin kamida chorakda bir marta o‘tkaziladi.

Qo‘mita majlislari natijalari bo‘yicha bayonnoma tuziladi, unda quyidagilar ko‘rsatiladi:

– majlis o‘tkazilgan sana va joyi;

– ishtirok etgan a’zolar ro‘yxati;

- muhokama qilingan masalalar;
- qabul qilingan qarorlar;
- mas’ullar va bajarish muddatlari.

Qo‘mita bayonnomalariga Qo‘mita raisi va kotib tomonidan uch ish kuni ichida imzo qo‘yiladi.

Qo‘mita tomonidan qabul qilingan qarorlar barcha tegishli bo‘lim va shaxslar uchun majburiy hisoblanadi.

Bayonnomalarning asl nusxasi va hujjatlar risklarni boshqarish bo‘limida saqlanadi. Bayonnomalardan ko‘chirma zarur hollarda manfaatdor tuzilmalarga yetkaziladi.

Qo‘mitaning faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlar har chorakda rahbariyatga taqdim etiladi, nusxasi ichki audit xizmatiga yuboriladi.

5.7. BOSHQARUVNING BOSHQA ORGANLARI BILAN O‘ZARO HAMKORLIK

5.7.1. Qo‘mita risklarni boshqarish bo‘limi, ichki audit, rahbariyat va Korxonaning boshqa bo‘limlari bilan hamkorlik qiladi.

5.7.2. Qo‘mita o‘z vakolati doirasida risklarni boshqarish bo‘yicha qarorlarining ijrosini nazorat qiladi.

5.7.3 Qo‘mita boshqa qo‘mitalar (ichki audit, komplaens, strategiya va investitsiyalar bo‘yicha) bilan risklar masalalari yuzasidan o‘zaro hamkorlikni ta’minlaydi.

5.8. YAKUNIY QOIDALAR

5.8.1. Ushbu Nizom tashkilot rahbari tasdiqlagan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

5.8.2. Barcha bo‘limlar Nizom talablariga amal qilishi va Qo‘mita qarorlarini amalga oshirishda ishtirok etishi shart.

5.8.3. Qo‘mita tuzilmasi va funksiyalariga o‘zgartirish kiritish Boshqaruv qarori bilan amalga oshiriladi.

6 YOZUVLAR

Qo‘mitaning faoliyati bilan bog‘liq yozuvlar, “Navoiyazot” AJ boshqaruv hujjatlari to‘g‘risidagi Nizomning TB-UZN-2 ning 9-bo‘limiga muvofiq amalga oshiriladi

7 SAQLASH

Mazkur Nizomning XBB-UZN-01 identifikatsiya raqami ostidagi asl nusxasi xavflarni boshqarish bo‘limida, nazorat nusxalari tegishli tashkiliy tuzilmalarda saqlanadi.

8 ILOVALAR

Risklarni boshqarish bo'yicha qo'mita to'g'risidagi nizomda ilovalar mavjud emas.

Xavflarni boshqarish bo'limi boshlig'i



Sh.T. Sayidova

KELISHILGAN:

Ichki audit xizmati rahbari



O.A. O'roqov

Yuridik boshqarma boshlig'i



R.I. Isoyev